

**“Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qiladi**

**Hurmatli aksiyadorlar!**

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi **2019 yilning 21 yanvar** kuni quyidagi manzil bo‘yicha o‘tkaziladi: Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 7-uy, “Kapitalbank” ATB Bosh ofisi binosi.

e-mail: [info@kapitalbank.uz](mailto:info@kapitalbank.uz)

vab-sayt: [www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz)

Ro‘yxatdan o‘tkazish soat **10.30** da boshlanadi.

Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish soat **11.00** da boshlanadi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bank aksiyadorlari reyestrini tuzish sanasi – **2019 yil 15 yanvar**.

**Kun tartibi:**

1. “Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish reglamentini tasdiqlash haqida.
2. “Kapitalbank” ATB shakllangan ustav kapitalini tasdiqlash haqida.
3. “Kapitalbank” ATB e‘lon qilingan aksiyalarining chegaraviy miqdorini belgilash haqida.
4. “Kapitalbank” ATB Ustaviga o‘zgartirishlar kiritish haqida.
5. Afillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlarni tasdiqlash haqida.

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga tayyorlangan materiallar bilan quyidagi manzil bo‘yicha tanishib chiqish mumkin: Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 7-uy, “Kapitalbank” ATB Bosh ofisi binosi, 3-qavat, 36-xona.

**Izoh:** Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida vakil to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (ismi yoki nomi, yashash yoki joylashgan joyi, pasport ma‘lumotlari) keltirilgan, yozma ravishda tuzilgan ishonchnoma asosida ishtirok etadi. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Yuridik shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi.